

## **Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash va mustaqil fikrlashga o'rgatish**

Maxfuza Abdurahimovna Dexqonova  
Farg'ona viloyati, Buvayda tumani, 34-maktab

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'limda - o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darsida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish yo'llari haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** savodxonlik, tafakkur, mohirona tadbiq, mustaqil fikrlash, husnixat, bilimni o'zlashtirish;

## **Ensuring students' literacy and teaching them to think independently in primary education**

Makhfuza Abdurahimovna Dekhkonova  
Fergana region, Buvaida district, School №34

**Abstract:** In primary education, it is to ensure students' literacy, to form compliance with the standards of literary speech in their oral and written speech. In this article, we will talk about ways to teach elementary students to think independently in the mother tongue and reading literacy class.

**Keywords:** literacy, thinking, skillful application, independent thinking, courtesy, mastering knowledge;

**KIRISH:** Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir. Xalqimizning milliy qadriyatlarini, an'analari, urf-odatlarini asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishtirishga g'ururlanishga sharqano g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi.

Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarini to'g'ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega

bo'ladi. Demak, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, ta'lim jarayoniga mohirona tadbiriq eta olishi, ta'limning yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

**ASOSIY QISM:** 1-4-sinflarda "Ona tili" fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtirildi.

Husnixatga o'rgatish. Husnixatga o'rgatishning vazifasi harf, so'z, gap va matnni to'g'ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o'rganish jarayonida o'quvchi tovushning shakli bo'lgan harfni, so'z va gapni kitobdan va doskadan to'g'ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yo'l qo'ygan grafik kamchilik hamda xatolarini o'qituvchi rahbarligida o'zi tuzata olishi kerak.

O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Muhimi, didaktik o'yinlar jarayonida bolada o'z kuchiga ishonch shakllanadi, erkin harakat qilishga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga o'rganadi, mustaqil fikrlar bildira boshlaydi. Masalan, "Suratdagi xatoni top" o'yinida bola suratni mustaqil kuzatadi. Qish manzarasi tasvirlangan suratda daraxtning gullayotgani ham chizilgan bo'lsa, buni bola mustaqil topadi. Shu joyda uning tafakkuri ham ishga tushadi. Ya'ni o'rganganlari asosida har bir faslning o'ziga xosliklarini esga oladi va qishda daraxt gullamasligini asoslaydi. Xuddi shuningdek, "Bo'lishi mumkin emas", "Matndagi xatoni top" o'yinlari, rebus, boshqotirma kabilar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Shuningdek, darslikdagi rasm ustida ishlashga doir mashqlar ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bola rasimga o'z munosabatini bildiradi, savol-javoblarda faol ishtirok etadi, rasm asosida hikoya yozish topshirig'i berilsa, u o'z tasavvurlari asosida hikoya yozadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida bolani

mustaqil fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari keng va undan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchini matn ustida ishlashga yo'llash mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng samarali usullaridan biridir. Boshlang'ich sinflar uchun tayyorlanadigan darsliklar ham matn oxirida beriladigan mashqlar, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'llashi lozim. Masalan, "She'ni kim aytayapti?", "She'rga siz qanday qo'shimcha qila olasiz?", "Hikoya (yoki ertak) qahramoni bilan do'stlashishni xohlaysizmi?", "Hikoya qahramoniga qanday maslahat berasiz?", "Ertak voqealari ichida bo'lishni xohlaysizmi?", "Unda kim bo'lib qatnashishni xohlaysizmi?" kabi savollar, "Matnni qismlarga bo'ling va har bir qismga sarlavha qo'ying", "O'qituvchi yordamida matn rejasini tuzing", "Reja asosida matnni qayta hikoya qiling", "Matndagi qahramonlarni almashtirib qayta hikoya qiling" va boshqa shu kabi topshiriqlarni berish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 1-4-sinflarda Ona tili fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtirildi. Bunda yillik o'quv soatlari A1 bosqichda 540 soatni tashkil etadi. O'qish (1-4-sinf) fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish; yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko'rsatkich - o'qish tezligi, ongli va ravon o'qish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi ham belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to'liq o'qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgaralar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi. Mazkur dasturdan o'rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o'quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo'lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

1-sinfning o'quv yili oxirida bolalar Vatan va uning tabiati, insoniy qadriyatlari haqida kichik-kichik asarlarni o'qiydilar. 2-sinfda shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo'lmagan Vatan, ona tabiat, istiqloq, kishilarning hayoti va mehnati, axloqiy munosabatlar haqidagi asarlar bilan tanishadilar. 4-sinflar o'qish dasturida mavzular ko'lami ancha kengayadi. Bu sinflarda o'qit darslarining kattagina qismi asarni o'qit va matn ustida ishlashga qaratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'limga ajratiladi: Birinchi bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan

kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

Ikkinchi bosqichda shu o'quv materiallar asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. O'quvchilar kitob va ularning mualliflari haqidagi bilimlarni bevosita amaliy faoliyatlari, ya'ni kitob ustida ishlash jarayonida egallaydilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsa, keyinroq bolalar yozuvchilarning asarlari bilan tanishadilar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o'tadilar. O'quvchilar milliy va jahon adabiyotlarini o'qib, tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

**XULOSA:** Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu-kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi. Xalqimizga xos bu qadriyatlar yuksak insoniy fazilatlarning e'tirofi bo'lishi bilan birga, barchamizni shu borada yanada faol ish olib borishga da'vat etadi. Darhaqiqat, halqimizga xos ana shu oliy qadriyat har doim bizlarni yoshlar talim-tarbiyasiga hayot-mamot masalasi sifatida etibor qaratishga chorlashi shart.

Zero yosh avlodning jismonan sog'lom, aqlan barkamol va ma'naviy etuk bo'lib voyaga etishi uchun barcha davlat idoralari va jamoat tashkilotlari, ona-yurt kelajagiga befarq bo'lmagan har bir sog'lom fikrli fuqaro mas'uldir. O'qitishning ahamiyati va unga zamonaviy yondashuvlar, fanni o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quv dasturidagi mavzularning mazmuni yoritilgan. Yuqorida qayd qilingan tasnifga ko'ra, 1-sinf «O'qish kitobi»da matnlardan so'ng asosan qayta xotirlash tipidagi savollar berilgani aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun DTS. Toshkent – 2017
2. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T., 2001
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. "Nasaf" nashriyoti. 1999.
4. Sayidaxmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., "Moliya", 2003.
5. Safarova R.G. va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Toshkent-2014.
6. Bagashev A. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi // Maktab o'quvchilari tarbiyasi. - 2008. - № 9.
7. Ilyin I. A. Ma'naviy yangilanish yo'li // Diniy va falsafiy kutubxona. M., Bibliopolis nashriyoti, 2008;

8. Ijtimoiy fanlar bo'yicha Levin K. Dala nazariyasi / [Per. Surpina] - Sankt-Peterburg: Nutq, 2000 yil